

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA INTERAKTIV TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA LIDERLIK KOMPITENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.**

Dexqonova Jamilaxon Yodgorjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

e-mail: dehqonovajamilaxon2@gmail.com

+998999930723

Annotatsiya: *Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan. Interaktiv yondashuvning mohiyati, afzalliklari, qo'llaniladigan metodlar va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Pedagogika kollejlari va universitetlarida olib borilgan kuzatuvlar, so'rovnomalar, test sinovlari va pedagogik tajriba natijalari asosida interaktiv yondashuvning bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijobiy ta'siri ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak*

Kalit so'zlar: *interaktiv yondashuv, bo'lajak tarbiyachi, kasbiy kompetensiya, pedagogik mahorat, ta'lim metodlari, pedagogika kolleji, universitet, maktabgacha ta'lim, faol ta'lim, innovatsiya*

Annotation: *The article explores the theoretical and practical aspects of developing professional competencies of future educators through an interactive approach. The essence, advantages, and methods of applying the interactive approach, as well as their effectiveness, are analyzed. Based on observations, surveys, tests, and pedagogical experiments conducted in pedagogical colleges and universities, the positive impact of the interactive approach on the development of professional competencies of future educators is demonstrated. The research results serve as the basis for further improvement of educational practices.*

Keywords: *interactive approach, future educator, professional competence, pedagogical skills, teaching methods, pedagogical college, university, preschool education, active learning, innovation*

Kirish XXI asr globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi davri bo'lib, barcha sohalar qatori ta'lim tizimiga ham yangi talablar qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari, jumladan, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar maktabgacha ta'lim tizimida ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilish, raqobat bardosh kadrlarni tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Bu jarayonda bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tarbiyachi nafaqat

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

bolalarga bilim beruvchi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashuvchi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal egallagan, innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladigan mutaxassis bo'lishi lozim. Bu esa, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayoniga yangicha yondashuvni, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etishni taqozo etadi. So'nggi yillarda ta'lim sohasida interaktiv yondashuvga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Interaktiv yondashuv – bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabaning faol hamkorligini ta'minlovchi, ularning o'zaro ta'sirini kuchaytiruvchi, bilim olishga qiziqishini oshiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga undovchi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishga yo'naltiruvchi ta'lim usulidir. Interaktiv yondashuvning an'anaviy ta'lim metodlaridan afzalligi shundaki, utalabalarning o'quv jarayonida subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, o'zaro hamkorlik qilish, muammolarni birgalikda haletish, kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik, psixologik, metodik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va boshqakasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida interaktiv yondashuvni qo'llash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion vositasi sifatida o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda interaktiv yondashuvning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

Lider – “bu birgalikdagi faoliyatni tashkil etishda va guruhdagi munosabatlarni tartibga solishda haqiqatan ham markaziy rol o'ynaydigan avtoritet shaxsdir ba liderga xos bo'lgan ba'zi belgilar ajratib ko'rsatilishi lozim. Lider (avtoritet) vaziyatiga ko'tarilgan guruhga mansubligi. O'z harakatlari bilan u boshqalarga qaraganda guruh maqsadiga erishishga ko'proq hissa qo'shadi (masalan, ko'proq gol urgan); Boshqa a'zolar tomonidan guruh maqsadiga erishishga hissa qo'shadi (darvozabon tomonidan muvaffaqiyatli qaytarilgan shayba butun jamoani ruhlantirishi mumkin);

Guruh a'zosi o'zining rahbarligi bilan guruhning boshqa a'zo lari tomonidan umumiy maqsadga erishishga hissa qo'shadi. Liderning tashabbuskorligi (qoidalar, umume'tirof etilgan me'yorlar, o'yin uchun amaliy ishlanmalarga rasmiy rioya qilish talab qilinganidan ko'ra, ixtiyoriy ravishda ancha kattaroq mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi). Guruh a'zolarining unga bo'ysunishi istagi yoki ehtiyoji”[1,35].

Muallifning fikricha, haqiqiy amaliyotda lider roliga ko'tarilishning uchta holati mavjud: 1. Shaxs lider bo'lishni xohlaydi, lekin guruh uning liderligini qabul qilmaydi Kichik o'quvchilar guruhlarida liderlik muammosini tadqiq qilish XX asrning boshlarida, amerikalik psixologlar ularning liderligining namoyon bo'lishini o'rganish bo'yicha birinchi tajribalarni o'tkazishda boshlangan. Masalan, Santa-Barbara (AQSh)

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin birlashmalarini qayd etishda Burke shunday xulosaga keldi: 4-6 yoshli bolalar "haddan tashqari individualistlardir", garchi bu bolalarning 26% ikki yoki uch kishidan bo'lib o'ynasalar ham, 20% esa hatto "rahbar" ajralib turadigan katta guruhlariga birlashganlar. Kichik maktab o'quvchilarining guruhdagi liderlik, ijtimoiy faolligi muammolariga oid xorijiy tadqiqotlar juda kam. Ushbu tadqiqotlarning mavjud ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, guruh ichidagi muloqot va bolalarning birgalikdagi faoliyati kam o'rganilgan, qadriyatga yo'naltirilganlikka yetarlicha e'tibor berilmagan. Mualliflar guruh (yoki boshqalar) ustidan ustunlik qilishga yordam beradigan shaxsiy xususiyatlar tug'ma ekanligi to'g'risidagi g'oyani aytib o'tishgan. Mazkur g'oya J.Tompsonda eng yaqqol ifodalangan bo'lib, uning fikricha, aksariyat bolalarda ustunlik qilish yoki boshqa bolaning xatti-harakatlarini belgilash istagi mavjud. Mazkur g'oya muallifda hayvonot olamida mavjud bo'lgan tartibdan kelib chiqqan: "asalarilarda malika..., bo'rilarda to'da yetakchisi, odamlarda esa shohlar, prezidentlar, bosh vazirlar bo'ladi. Bolalarning ijtimoiy guruhlarida ham individual avtoritetning mazkur iyerarxiyasi aks etadi" [2,72].

O'sib borayotgan avlodning tashkilotchilik faoliyati muammosi psixologiya - pedagogika fani tomonidan XX asrning 20-30-yillardayoq faol hal qilib borilgan. "Mazkur muammo bolalarning o'z - o'zini boshqarishini qurish yo'llarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan." [3,95].

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik sifatining belgisi uning faolligi hisoblanadi. Bu esa shaxs va uning faoliyatining tizimli sifati hisoblanadi. Shaxsga individual o'ziga xos xususiyatlar hayoti davomida paydo bo'ladigan hodisa sifatida qarash olimlarning tadqiqotlari orqali asoslangan. Liderlik muammosini talqin qilishda turli xil yondashuvlar mavjud: antropologik, sotsiologik, personalistik, faoliyatli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Hoshimov, Q. H., Pedagogika nazariyasi. / Yakubov, Sh. S. – T.: "Nosir" nashriyoti. 2017. – 248 b.
- 2.Ibragimov, X. I. Pedagogika nazariyasi. – T.: "Sharq" nashriyoti. 2010. – 259 b.
- 3.Mahmudov, N. M. Pedagogik mahorat asoslari. – T.: "Navro'z" nashriyoti. 2020. – 208 b
4. Мирбоқиев А. М. Лидерлик. Қўлланма. Тошкент. 2019.-80 б
5. Немов Р. С. Психология. Учебник. - М., 1994.-159 с